

**Suv tejankor texnologiyalar asosida sholi etishtirishning afzalliklari
(Xorazm viloyati sharoitida)**

Amanboyeva Gulzoda Maxmudjon qizi -UrDU biologiya yoʻnalishi
magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm viloyati sharoitida suv tejankor texnologiyalarga asoslangan biologik tozalangan kommunal xoʻjalik oqova suvlaridan qayta foydalanishning samarasi haqida maʼlumot berilgan. Bunda umumiy vegetatsiya davri uchun 18500 m³/ga suv sarflanib shundan toza suv (ariq suvi) 13875 m³/ga, oqova suv 4625 m³/ga sarflangani hamda toza suv sarfi oqova suv hisobiga 4625 m³/ga ga tejalgani koʻrsatilgan.

Kalit soʻzlar: vegetatsiya davri, reproduktiv faza, oqova suvlar, naychalash davri, sut pishish davri, pishib yetilish fazasi.

Абстрактный. В данной статье представлена информация по перегрузке водосберегающей технологии из эффективно биологически очищаемых городских сточных вод в Хорезмской области. При этом за общий вегетационный период израсходовано 18500 м³/га воды, за счет потребления пресной воды сэкономлено 13875 м³/га пресной воды (речной воды), 4625 м³/га сточных вод и 4625 м³/га зеленых ресурсов.

Ключевые слова: вегетационный период, репродуктивная фаза, сточные воды, период всходов, период созревания молока, фаза созревания.

Abstract. This article provides information on reloading water-saving technology from municipal wastewater effectively biologically treated in Khorezm region. In this, 18,500 m³/ha of water was consumed for the general vegetation period, 13,875 m³/ha of fresh water (river water), 4,625 m³/ha of wastewater, and 4,625 m³/ha of green resources were saved due to consumption of fresh water.

Key words: vegetation period, reproductive phase, wastewater, sprouting period, milk ripening period, ripening phase.

Kirish. Keyingi yillarda mamlakatimizda qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirish, eksport hajmini oshirish, sohaga zamonaviy texnologiyalarni tadbiq etish hamda suv resurslaridan oqilona foydalanishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Bugungi kunda Yer yuzida aholi sonining ortishi, iqtisodiyot rivoji hisobiga tobora kuchayib borayotgan suv taqchilligi barcha ekinlar, shu jumladan, sholini yetishtirishda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Iqlim oʻzgarishi va boshqa antropogen taʼsirlar oqibatida togʻlardagi muzliklarning soni va hajmi keskin kamayib, daryolardagi suv hajmi pasayib

bormoqda. Bundan tashqari, mintaqa mamlakatlari, shu jumladan, O'zbekistonda ham aholi sonining o'sishi va iqtisodiyotning jadal rivojlanishi natijasida suvga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Bunday sharoitda qishloq xo'jaligida suv resurslaridan samarali va tejimli foydalanish ayniqsa, ekinlarni sug'orishda suvni tejaydigan texnologiyalardan foydalanishni davrning o'zi taqozo etyapti.

Sholi doimo suvda o'sishiga qaramay, uning rivojlanish davri davomida suvga bo'lgan talabi turlicha. O'zbekistonda hozirgacha an'anaviy usulda ekiladigan sholipoyalarning sug'orish davri aprel oyining uchinchi o'n kunligidan sentyabr oyining birinchi o'n kunligigacha davom etadi.

Yillik sug'orish me'yori an'anaviy usul, ya'ni sholi urug'ini tuproqqa qadagan kundan pishib yetilguncha bo'lgan davrda iqlim, tuproq va amalga oshiriladigan agrotexnik tadbirlarning turiga qarab, gektariga o'rtacha 16-25 ming kub metrni tashkil qiladi. Uning 30-40 foizini sholi o'simligi pishib yetilish davrigacha o'zlashtiradi, qolgan qismi parlanish, tuproqqa shimilib, yer ostiga o'tib ketish kabi foydasiz jihatlarga sarflanadi.

Natija va munozara. Suv tejamkor texnologiyalarning yomg'irlatib, tomchilatib, oqovasiz, qisqartirib, tunda suv bermasdan sug'orish, kollektor-zovur suvlaridan samarali foydalanish hamda tozalangan oqova suvlaridan qayta foydalanish usullari natijasida har gektar yer maydonida 5-6 ming kub metr suv tejash mumkin. Xorazm viloyati sharoitida yuqoridagi barcha texnologiyalar qo'llab tajribalar olib borilmoqda. Tadqiqotlarimizda biologik tozalangan kommunal xo'jalik oqova suvlaridan sholichilikda qayta foydalanish hisobiga toza ariq suvini tejash bo'yicha tajribalar olib borildi. Tadqiqot uchun alanga navi tanlandi.

Tajribalarda sholi uchun sarflanadigan toza ariq suviga 25% oqova suv qo'shib, ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Bunda vegetatsiya fazasining o'sish davrida 2625 m³/ga toza suv, 875 m³/ga oqova suv, tuplanish davrida 1875 m³/ga toza suv, 625 m³/ga oqova suv, jami bu fazada 4500 m³/ga toza suv, 1500 m³/ga oqova suv berildi. Reproduktiv fazaning naychalash davrida 3375 m³/ga toza suv, 1125 m³/ga oqova suv, gullash davrida 3000 m³/ga toza suv, 1000 m³/ga oqova suv, jami bu davrda 6375 m³/ga toza suv, 2125 m³/ga oqova suv sarflandi. Pishib etilish fazasining sut pishish davrida 2250 m³/ga toza suv, 750 m³/ga oqova suv, to'la pishish davrida 750 m³/ga toza suv, 250 m³/ga oqova suv, jami pishib yetilish fazasi uchun 3000 m³/ga toza suv, 1000 m³/ga oqova suv sarflandi.

Xulosa. Tajribalarda umumiy vegetatsiya davri uchun 18500 m³/ga suv sarflanib shundan toza suv 13875 m³/ga, oqova suv 4625 m³/ga sarflandi. Bunda toza suv sarfi oqova suv hisobiga 4625 m³/ga ga tejalib, hosildorlik 69 s/ga tashkil qildi. Bunday texnologiyalardan Qoraqalpog'iston va Xorazm tuproq-iqlim sharoitlarida

foydalanish suv va resurslarini tejashda shu bilan birga atrof-muhitni muhofaza qilishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. К.Йулдошев, С.Буриев, З.Тажиев, Ш.Закирова. Тежамкор технологиялар асосида шולי етиштиришда оқова сувлардан фойдаланишнинг самарадорлиги. Агро Илм-Ўзбекистон Қишлоқ ва сув хўжалиги вазирлиги журнали.-Тошкент -2022 №5- Б.81-83.

2. Yuldashev, K., Tajiev, Z., Buriev, S., Dusov, K., Zakirova, S., Shomuratova, P., ... & Saparova, G. (2023). Effectiveness of wastewater use in rice cultivation on basis of water-saving technologies. In E3S Web of Conferences (Vol. 421, p. 05001). EDP Sciences.

3. “Agrobank”. АТВ.100 kitob to`plami. Sholi etishtirish. 3-kitob. Toshkent, 2021- B.7-67.

4. Yu. B. Saimnazarov, A. Q. Abdullayev, L. A. Mirzayev, Ch. T. Qashqaboeva, Q. K. O`razmetov. “Sholichilik” Toshkent. 2015. B.3-140